
“Ikkinchi jahon urushi va O’zbekiston xalqi: tadqiqotlar” mavzusida konferensiya o’tkazildi

Joriy yil 29-noyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O’zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, Mudofaa vazirligi “G’alaba bog’i” yodgorlik majmuasi, “O’zarxiv” agentligi va O’zbekiston “Prometey” vatanparvarlik-qidiruv ekspeditsiyasi tomonidan “G’alaba bog’i” yodgorlik majmuasi “Shon-sharaf” davlat muzeyida “Ikkinchi jahon urushi va O’zbekiston xalqi: tadqiqotlar” mavzusida respublika ilmiy konferensiyasi o’tkazildi.









Konferensiya urush yillarida xalq jasorati va matonatini, mehr-muruvvati va insonparvarlik fazilatlarini o’rganish orqali fashizm ustidan qozonilgan G’alabaga erishishda O’zbekistonning munosib hissasini har tomonlama ko’rsatish hamda bu davrni tadqiq etish masalalariga bag’ishlandi.

Unda Ikkinchi jahon urushi yillarida bedarak yo’qolgan yurtdoshlarni qidirish bo’yicha O’zbekiston “Prometey” vatanvarlik-qidiruv ekspedetsiyasi faoliyati, arxiv hujjatlarini o’rganish asosida aniqlangan yangi ma’lumotlar, shuningdek, Qarshilik ko’rsatish harakatida o’zbekistonliklar ishtiroki yuzasidan turkum ma’ruzalar tinglandi.

Konferensiyada Ikkinchi jahon urushi yillarida Harakatdagi armiya safida tibbiyot xodimi bo’lib xizmat qilgan, xalqaro “Florens Naytingeyl” medali sohibasi Rixsixon Mo’minova oilasi vakillari ishtirok etdi.

Konferensiya materiallari asosida ilmiy to’plam tayyorlanib, u Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk G’alabaning 77 yilligi arafasida chop etilishi rejalashtirilgan.